

“SINF DAN TASHQARI ISHLARNING TURLARI, BOSQICHLARI VA SHAKLLARI “

Matyoqubova Zuhra Urinbayevna

Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu ilmi maqolada sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish, ularning turlari, bosqichlari va shakllari hamda o'quvchilarni dars mashg'ulotlaridan tashqari vaqtda qiziqarli o'yinlarni tashkil qilish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari, sinf dars tizimi, kolleksiya to'plash, konsepsiya, nutq odobi.*

Аннотация: *В данной научной статье рассказывается об организации внеурочной деятельности, ее видах, этапах и формах, а также об организации интересных игр для учащихся во внеурочное время*

Ключевые слова: *Основные формы внеурочной деятельности, система классных занятий, сборник, понятие, речевой этикет.*

Abstract: *This scientific article talks about the organization of extracurricular activities, their types, stages and forms, as well as the organization of interesting games for students outside of class*

Key words: *The main forms of extracurricular activities, class lesson system, collection, concept, speech etiquette.*

Sinfdan tashqari ishlar - umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlari o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlariga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini tashkil etishda o'quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyoxlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o'tkazish, viktorina va ko'rgazmalar uyushtirish, tabiat qo'yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish), to'garak ishlari (o'quvchilarning turli to'garaklar, sport seksiyalari, ansambllardagi qatnashishlari), mustaqil ishlar (o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnika, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik va sh.k. bilan mustaqil shug'ullanishi)ni ko'rsatish mumkin.

Sinfdan tashqarida, ammo maktab territoriyasida o'quvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladigan ishlar sinfdan tashqari ishlar deb aytiladi. O'qituvchilarning deyarli hamma qismi sinfdan tashqari ishlarga jalb etiladi va undan o'quvchini har tomonlama rivojlantirishning muhim vositasi sifatida foydalanadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'ziga xos xususiyatlari bilan mashg'ulotlardan farq qiladi. Bu ish ixtiyoriy xarakterga ega bo'lib, o'quvchilar o'z qiziqishlariga va layoqatlariga qarab turli xil to'garaklarga qatnashadilar, darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladigan oilaviy va individual ishlarga ham o'z istaklari bilan ishtirok etadilar. Sinfdan tashqari ishlarning turlari va shakllari xilma-xil bo'lib, har bir maktab bu ishga istesnosiz, hamma o'quvchilarni tortishi talab etiladi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning mazmuni va formasi asosan o'quvchilarning qiziqishlariga, talablariga hamda ularning shaxsiy xohishlariga va mahalliy sharoitlariga bog'liq holda amalga oshiriladi. O'zbekiston xalq ta'limi vazirligining 1994 yilda chiqargan "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyalari"da ko'rsatib o'tilgan talablarga muvofiq tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ayniqsa, o'quvchilarga mustaqillik berish alohida ta'kidlangan. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning asosiy vazifasidan biri - o'quvchilar hayotini zavqli, sermazmun va madaniy qilish, ularni jamoa bo'lib yashashga va ishlashga o'rgatishdan iborat.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning shakllari:

a) og'zaki ish usullari (siyosiy axborotlar, majlislar, sborlar, ma'ruzalar, dokladlar, munozaralar, uchrashuvlar, savol-javob kechalari, bahslar va x.o.);

b) amaliy ish usullari: kultpoxodlar, ekskursiyalar, spartakiadalar, olimpiadalar, konkurslar va o'quvchilar faollari bilan olib boriladigan ishlar, yashil patrullar, texnika ijodi, yosh texniklar to'garaklari, shanbaliklar va boshqalar;

v) ko'rgazmali ish usullari: maktab muzeylari, urush va mehnat qahramonlari galereyasi, badiiy ijod vositalari, tashkiliy stendlar va boshqalar.

Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari bo'lib, ular quyidagilarga bo'linadi: -Ommaviy ishlar-o'quvchilar orasida olib boriladigan siyosiy- oqartuv ishlari bilan bog'liq bo'lgan, ichki va tashqi siyosatning aktual masalalari, siyosiy axborotlar, suhbatlar, dokladlar, ma'ruzalar: (1-sentyabr, 8-mart, 9-may, 1-oktyabr, 21- mart va boshqalarga) bag'ishlangan adabiy-badiiy yig'ilishlar.

- Madaniy-ommaviy tadbirlar: -adabiy kechalar, spektakllar, badiiy havaskorlik kechalari, o'tkir zehnlilar tortishuvlari va boshqalar

- Guruxiy ishlar: Bunda o'qituvchi sinfdan tashqari o'quvchilarning ma'lum bir guruxi bilan tarbiyaviy ishlar va tadbirlarni o'tkazishi mumkin.

- Individual ishlar: bunda o'qituvchi yoki tarbiyachi o'quvchining individual yosh xususiyatlariga qarab ish tutadi. Masalan: tortinchoq, passiv o'quvchilar har bir sinfda ham uchraydi.

Sinfdan, maktabdan tashqari ishlarda quyidagi tarbiyaviy tadbirlar muhim o'rinni egallaydi:

a) siyosiy axborotlar;

b) o'quvchilarning ishlab chiqarish ilg'orlari, atoqli kishilar bilan uchrashuvlari;

v) fan to'garaklari;

g) klublar, o'lkani o'rganish to'garaklari, maxsus to'garaklar jismoniy, madaniy sport to'garaklari, maktab mashg'uloti, sinfdan tashqari kitobxonlik va boshqalar.

Sinfdan tashqari ishlarining maqsadi – ona tili darslarida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, ona tilining fonetika, grammatika, morfemika, sintaksiz, so'z birikmasi, so'z, gap kabi tushunchalari bilan yaqindan tanishish, muntazam ravishda ona tiliga muhabbatni uyg'otish va uni amalda to'g'ri qo'llay oladigan ongli komil insonni tarbiyalashdir. Sinfdan tashqari ishlar o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda izlanuvchanlik va ijodkorlik darajasiga ko'tarish talab qilinadi. Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus sinfdan tashqari ishlar darslari tashkil etilgan. Sinfdan tashqari ishlar 1-2 -sinfdan haftada 1 marta, 3-4-sinfdan 2 haftada 1 marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17-20 daqiqasi ajratiladi. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni asosiy maqsadi o'quvchilarda fanga qiziqishni rivojlantirish, darsda olingan bilimlarni to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Boshlang'ich sinflarda ona tilidan “sinfdan tashqari ish” deyilganda o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur bilan bog'liq bo'lgan material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashg'ulotlar tushuniladi. Sinfdan tashqari ishlarni ikki turini farqlash mumkin. Uning birinchi turiga rejadagi materiallarni o'zlashtirishda orqada qoladigan bolalar bilan ishlash tushunilsa, ikkinchi turi esa ona tilini o'rganishga qiziquvchi bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar kiradi. Ma'lumki birinchi turdagi mashg'ulotlar hozirgi kunda mamlakatimizning barcha mamlakatlarida mavjud. Bunday mashg'ulotlarni bilimlar darajasi bir-biriga yaqin 3-4 o'quvchidan iborat kichik guruhlarda haftada 1-2 marta o'tkazish mumkin. Odatda sinfdan tashqari ishlar deyilganda ko'proq ikkinchi turdagi mashg'ulotlar nazarda tutiladi va ular asosan o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi: O'quvchilarda ona tiliga va uning tadbiqlariga qiziqish uyg'otish, o'quvchilarning ona tilidan reja bo'yicha olgan bilimlarini kengaytirish, o'quvchilarda ilmiy tekshirish xarakteridagi malakalarini oshirish, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish, o'quvchilarda tilshunos olimlar va tarixiy materiallar haqida tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Bu maqsadlarni bir qismi darsda amalga oshiriladi, ammo dars vaqti chegaralanganligi tufayli qolgan qismini sinfdan tashqari ishlarda amalga oshiriladi. Ona tilidan sinfdan tashqari olib bo'ladigan ishlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi. Uning ta'limiy ahamiyati shundaki, o'quvchi bu jarayonda qo'shimcha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Tarbiyaviy ahamiyati esa nutq odobini tarbiyalash, zukkolik, tezkorlik va

hozirjavoblik singari fazilatlarni shakllantirish, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat ko`rsatish, nutq odobini tarbiyalash singarilarda o`z ifodasini topadi.



Doimiy tadbirlarga to`garak mashg`ulotlari kiritilsa, qolganlari vaqt-vaqti bilan o`tkaziladigan tadbirlarga kiradi. Sinfdan tashqari ishlar ayniqsa boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ularga nutqini o`stirish, olingan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun yordam beradi. Yangi qo`shimcha ma`lumotlar manbai hisoblanadi. Sinfdan tashqari ishlarning ta`limiy ahamiyati – o`quvchilarga qo`shimcha bilim, malaka va ko`nikmalar berish. Tarbiyaviy ahamiyati – o`quvchilarning ijodiy faoliyat ko`rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlash



Adabiy kechalar

- Adabiy kechalarga misollar
- “Navoiyxonlik”, “Boburning tavallud kuniga bag’ishlangan kecha” va h.k

Ekskursiya

- Ekskursiya ma’lum bir maqsadga yo’naltirilgan bo’ladi va ekskursiyadan oldin o’quvchilarga topshiriqlar beriladi
- Muzeylarga ekskursiyaga borish; Metro bekatlari bo’ylab sayohat;
- Davlat kutubxonalariga tashrif; Teatr va kino va h.k

Bayram va tadbirlar

- Bunga mavsumiy bayramlarni kiritishimiz mumkin
- Bayram va tabriqlar ssenary asosida tashkil etiladi.

Shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar

- Uchrashuv jonli muloqot tarzida tashkil etiladi.
- Uchrashuvga o’quvchilar yaxshi biladigan shoir va yozuvchilarni taklif etish maqsadga muvofiq
- Mehmon bolalar adabiyotio vakili bo’lishi lozim.

Ko’rik tanlovlar

- Bu ko’rik tanlovlar sinflar ichida yoki sinflar aro bo’lishi mumkin
- Miasalan: “Yilning eng bilimdon o’quvchisi”,

To’garaklar

- To’garaklar ma’lum bir fan asosida tashkil etiladi
- To’garak uchun yillik ish reja tuziladi
- Masalan: “Yosh xattot”, “Ona tilim – jon-u dilim”

Maktabdan tashqari ishlar maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan uyushtiriladigan ta’lim-tarbiyaviy va madaniy oqartuv ishlaridan iborat. Maktabdan tashqari bolalar ta’lim tarbiyaviy muassasalarining bola tarbiyasidagi roli beqiyos katta ahamiyatga ega bo’lib, bunday muassasalarni asosan 2-turga ajratish mumkin:

1. Keng profilli, ya’ni ko’p xil ta’lim- tarbiya va madaniy oqartuv ishlarini olib boradigan bolalar ta’lim-tarbiya muassasalari (o’quvchilar uylari, saroylari, bolalar klublari, madaniyat uylari qoshidagi bolalar sektorlari, bolalar maydonlari, yozgi dam olish lagerlari va boshqalar.

2. Tor profilli bolalar ta’lim-tarbiya muassasalari –ya’ni ma’lum bir sohada bolalar bilan ta’lim-tarbiya va madaniy oqartuv ishlari olib boradigan muassasalar: (bolalar

kutubxonalarini, yosh tabiatshunoslar, bolalar teatrlari, bolalar ijodiy uylari, bolalar turizmi, ekskursiyasi, bolalar qo'g'irchoq teatrlari, bolalar temir yo'llari, bolalar stadionlari, sport maydonlari, muzika maktablari va boshqalar.

Maktabdan tashqari bolalar ta'lim-tarbiya muassasalari, ta'lim-tarbiya sohasidagi muassasalargina bo'lib qolmasdan, balki sinfdan, maktabdan tashqari olib boriladigan ishlarning metodik markazi bo'lib ham hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlar sistemasida maktab va maktabdan tashqari muassasalari, jamoatchilik, mahalla qo'mitalari va oqsoqollari bilan o'zaro hamkorlik qilishi ijtimoiy va pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda va ularni kompleks hal etishda maktablardagi, gimnaziya, kollej va litseylardagi ma'naviy va ma'rifiy ishlar tashkilotchisi ham alohida o'rin egallaydi. Uning bolalar ta'lim-tarbiya muassasalari, sinf rahbarlari, va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligi alohida ahamiyatga ega. O'quvchilarni har tomonlama etuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o'zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko'p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga bog'liqdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi, to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi: Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish. O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish. Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy. Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator kishilarni kiritish mumkin: Tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash. Tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash. Sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. SHu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. SHuning uchun ham

o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarni o'rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga o'tlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi: Og'zaki ish usullari: majlislar, yig'inlar, ma'ruzalar, kutubxonalar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar. Amaliy ish olib borish usullari turli joylarga sayyohatlarga, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko'rgazmalari. Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir. Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar turli qo'llanmalar, asboblari, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o'rganadilar, o'z-o'zini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko'nikmalarini egallaydilar. Sinfdan va maktabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlariga, maktabning joylashgan shart-sharoitlariga, ijodiy birlashmalariga, ilmiy markazlar bilan o'zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati, o'z ifodasini topgan xujjatlar ro'yxati, xalq ta'limi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar etakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnoma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi: darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashning xilma-xil shakllarini olgan, nazariy bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi; tajribalar, ijodiy tushdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyihalashni, maketlar, modellar vahokazolarni tayyorlashni olgan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar sistemasi maqsadga muvofiqdir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar metodikasi fani va bo'limiga sinf rahbarlarining ishlari, maktab ma'muriyatining tarbiyaviy ishlari kiritiladi. Bunda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomilasi, adolatli bo'lishi, ta'sir ko'rsata olishi kerak. O'quvchi yoshlarni hozirgi zamon ma'naviyati bilan ongini sug'orish, ya'ni singdirish kerak. O'quvchilarni qadriyatlarimiz asosida urf-an'alarimiz asosida tarbiyalash har bir o'qituvchining vazifasi. O'quvchi atrofini o'rab turgan vositalar, yaxshi-yomon odatlar, o'kituvchilar, maktabning muhiti, o'quvchilar tarbiyasini to'g'ri, ongli ravishda o'rganish va qabul qilish. Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

To'garak turlari:

Fan to'garaklari.

Mohir qo'llar.

Duradgorlik.

Sport musobaqalari.

Badiiy havaskorlik.

Maktabda va sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni bir-biriga hurmati, axloqiy sifatlari jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O'quvchi o'qituvchiga taqlid asosida yoki do'stlari orasida o'rgangan tarbiyasi muomilasiga ta'sir qilish mumkin. Uqituvchi o'quvchilar orasida muomala-madaniyatni shakllantirish uchun avvalambor o'quvchining o'ziga bo'lgan muomalasini etiborini o'rganishi kerak. O'quvchi maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o'qituvchi talabiga ham javob berishi lozim. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni nazoratsiz ijro etish holati rasmiy ijrochilik, ishtiyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan o'quvchilarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mavjud bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, aks holda o'quvchilarda ishiga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo bo'ladi, bu esa ularni mehnatdagi tashqi faollikni yo'qqa chiqaradi. Sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarda o'quvchilarning hatti-harakatlari oldindan juda qattiq tartibga solib qo'yilganligi xususida e'tirozlar bildirilmoqda. Mustaqillikni tarbiyalash vazifasi qo'yilmagan, bolaning har bir qadami pedagogning irodasiga bo'ysungan joylarida ana shunday holat mavjuddir. Xudi shuning uchun mustaqil tayyorgarlik samaradorligi, o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan o'qituvchi, sinf rahbari o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish vositalarini puxta o'ylab tanlaydilar, ularning ishlashi uchun oqilona shart-sharoit yaratishga intiladilar. Maktab o'quvchilarining mustaqil tayyorgarligiga pedagogik rahbarlik shunday qurilish kerakki, u o'quvchilarni charchatib qo'ymas, doim bir xil tusda bo'lmasin, yoki haddan tashqari oson, aqliy va irodaviy kuch-g'ayratini sarflashni talab qilmaydigan bo'lmasin. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish shva o'tkazishda tarbiyachi eng muhim vazifa o'quvchilarni o'quv vazifalarini hal etishga o'rgatishdan, buning uchun harakat usullarini to'g'ri tanlashdan, o'z hatti-harakatlariga rahbarlikni faoliyatini nazorat qilishdan, mustaqil ish ko'nikmalarini boshqa muhim xayotiy vaziyatlarga o'tkazishdan kelib chiqishdan lozim ekanligini nazarda tutish lozim. Bunda mustaqillik mazmuniga fikrlash faoliyatining mustaqilligi, intizom, uyushqoqlik va o'z-o'zini nazorat qilish kabi to'rt tarkibiy qismi kirishini hisobga olish muhimdir. Mazkur jihatlarni shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining muhim va murakkab vazifalaridan biridir. Buning uchun o'quvchi faoliyati natijalarini hisobga olishni va bu jarayonni tahlil etishni uyushtirish zarur. O'qituvchi sinf-dars faoliyati uchun xos bo'lgan shakllarni istisno etib, nazorat qilishning bir qancha usullarini qo'llashi mumkin. Eng kuchli va qobiliyatli o'quvchilarga homaki yozuv bilan ishlash xuquqi beriladi. Unda qoida ko'rsatiladi, bu qoidani tasdiqlovchi misollar keltiriladi, o'quv vazifasi qayd etiladi. Yozuv juda qisqa bo'ladi, lekin u o'quvchining fikrlashi qanday borganligini ko'rsatadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'quvchilarni ayrim ko'nikmalarga o'rgatishni nazorat vositasi deb hisoblash kerak. O'z-o'zini tekshirish, o'zaro tekshirish usullariga o'rgatish o'qituvchining o'quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash ishi jarayoni ravshan bo'ladi. O'quvchilarning o'zlari harakatni taklif etadilar vash u bilan pedagogga muayan ma'lumot beradilar. Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning etakchi tamoyilidir. Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi yangi pedagogikada to'la ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kurslarida bayon etilgan jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv-mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish. Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma hisoblanadi. O'rta umumta'lim maktablarida sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar xayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishag zamin yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi: Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar ni rejalashtirish va amalga oshirish. O'quvchilarni maktabdan va sinfdan tashqari ko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar, tashkilotlar, sinf faollari yordamida yo'lga ko'yish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar o'quvchilar, tashkilotchilar sinf faollariga yordam ko'rsatish. Umummaktab va maktablararo tarbiyaviy tadbirlarga qatnashish. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini 3 ta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, umumiy va ma'muriy. Bular o'zaro uzviy bog'langan bo'ladi. Shular asosida yangi bilimlarni hosil qiladi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatlarga duch keladilar. SHuning uchun ham maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy bo'ladi. Maktab tashqaridagi ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarini o'rganadilar. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari o'z ishini reja asosida olib boradi va uning bajarilishini ham nazorat qilib boradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning umumiy rejasi, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, etakchi ota-onalar qo'mitasi, ish rejalari ishini ham e'tiborga olishi kerak. Ish reja maktab direktorii tomonidan tasdiqlangan. Ish rejasida boalalrning yosh

xususiyatlariga maktabning joylashgan shart-sharoitiga, ijodiy birlashmalariga ilmiy markazlar bilan o'zaro tarqalgan aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati o'z ifodasini topgan xujjatlar ro'yxati xalq ta'limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda beri boriladi. A. Jo'raevning «Tarbiyaviy darslarni o'tish» risolasida mustaqillik g'oyasi bilan bog'langan tarbiyaviy tadbirlardan qoidalarga asoslangan qonunlar belgilangan.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli farmoni.

3. Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar. Xalq ta'limi, 2020. 3- maxsus son, 37-43 bet.

4. Kuznetsova Marina Ivanovna, "PIRLS 2021 xalqaro solishtirma tadqiqoti doirasida o'qish savodxonligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari". 2021y.

5. <http://www.markaz.tdi.uz>